



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinova</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G'. R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарлова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdulkarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari.....	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari.....	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari.....	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений...	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	



TASVIRIY FAOLIYAT JARAYONIDA ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNING KOGNITIV JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH

Sadirova Kamola Giyozovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari
kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish, ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tasviriy san'at darslarining ahamiyati, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga tasviriy faoliyatning ta'siri, bilish jarayonlarini rivojlantirishi, estetik his-tuyg'ular kabi shaxsiy sifatlarni shakllantirishi, kar va zaif eshituvchi bolalarning tasviriy faoliyat orqali ijodga bo'lgan qiziqishini oshirishi hamda ijodiy jarayonda faol rivojlanish imkonini berishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, kognitiv jarayonlar, tasviriy faoliyat, estetik his-tuyg'u, mo'yqalam, o'lchov, rang, ko'rgazmali qurollar, ijodiy jarayon, kar va zaif eshituvchi o'quvchi, korreksiya, nutq, bilish jarayoni.

Abstract: This article discusses the development of cognitive processes in students with hearing impairments through visual activities, the importance of fine arts lessons for primary school students in specialized boarding schools, the impact of visual activities on the cognitive development of students with hearing impairments, the development of cognitive processes, personal qualities such as aesthetic sense, the ability of deaf and hard-of-hearing children to develop an interest in creativity through visual activities, and their active participation in the creative process.

Key words: fine arts, cognitive processes, visual activity, aesthetic sense, brush, measurement, color, visual aids, creative process, deaf and hard-of-hearing student, correction, speech, cognitive process.

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие когнитивных процессов у учащихся с нарушениями слуха в процессе визуальной деятельности, важность уроков изобразительного искусства для учащихся начальных классов специализированных школ-интернатов, влияние визуальной деятельности на когнитивное развитие учащихся с нарушениями слуха, развитие познавательных процессов, формирование личностных качеств, таких как эстетическое чувство, развитие интереса к творчеству у глухих и слабослышащих детей посредством визуальной деятельности, а также их активное участие в творческом процессе.

Ключевые слова: изобразительное искусство, когнитивные процессы, визуальная деятельность, эстетическое чувство, кисть, измерение, цвет, наглядные пособия, творческий процесс, глухой и слабослышащий ученик, коррекция, речь, познавательный процесс.

KIRISH

Tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus maktabining boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish tizimida muhim o'rin egallaydi. Tasviriy san'at ham boshqa o'quv fanlari bilan birgalikda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni korreksion rivojlantirishga ta'sir ko'rsatadi, bilish faoliyatini shakllantiradi (xotira, diqqat, idrok, ko'ruv va fazoviy idrok, ko'rgazmali-obrazli tafakkur hamda ijodiy tasavvur). Nutq, badiiy madaniyat, estetik his-tuyg'ular kabi shaxsiy sifatlarni kar va zaif eshituvchi bolalarni san'atga birlashtiradi hamda ijodiy jarayonda eshitadiganlar qatorida teng qatnashish imkoniyatini beradi.

Rasm chizishga doir jihozlar turlicha: qalam, mo'yqalam, bo'yoq, bo'r, qog'oz, hatto tayoqcha bilan ham qum ustiga rasm chizish mumkin. Yana tasvirni soxtalashtirilgan hajmdan tayyorlash usullari bilan odamlar qadimda loydan idishlar, taqinchoqlar yasashgan, odam va hayvon shakllarini yopishtirishgan. Bundan tashqari, tasviriy faoliyat bola o'zini aks ettirishda eng qulay vositalardan biridir. Bolalar o'zi o'ylagan, ularning e'tiborini tortgan narsalarni chizadilar, rasmlarda yashaydilar, o'zlarining munosabatlarini bildiradilar. Tasviriy



faoliyatning yana bir xususiyati shuki, u insonni muhitga yaqinlashtiradi. She'r o'qish, ashula aytish hamda raqs tushganda inson a'zolari, ya'ni uning ovozi, tanasi ishtirok etadi. Rasm chizish jarayonida yoki boshqa tasviriy faoliyatlarda esa nafaqat inson a'zolari, balki yordamchi vositalardan – rasm uchun materiallar yoki o'lchamli buyumlar, qurol hamda asboblardan foydalaniladi. Masalan, loy yoki plastilinga tayoqcha yordamida kerakli shaklni berish, bo'yoqli cho'tka bilan bo'yash, qaychi yordamida qog'ozni qirqish.

Bu material va qurollar turli murakkab ishlarga vositachilik vazifasini o'taydi, shuning uchun bolalarning tasviriy san'at darsidagi texnik malakalarini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kerakli harakat va amallarning o'zlashtirilishi (ayniqsa aniq va mayda harakatlar) eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning umumiy rivojlanishidagi muhim vositadir, shu bilan birga hayotda kerak bo'ladigan farosatlilik, ziyaklilik hamda yaratuvchanlik kabi sifatlarning shakllanishida ham muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Olimlarning tahlillariga ko'ra, bola qanchalik qo'l bilan nozik harakat qilsa, ayniqsa barmoqlar harakati rivojlangan bo'lsa, uning nutqi va tafakkuri shunchalik tez va yaxshi rivojlanar ekan. Ma'lumki, tasviriy faoliyat jarayoni qo'l muskullarining faoliyatidir.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning kognitiv rivojlanishi va tasviriy faoliyatning ahamiyati ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. L.S. Vygotskiy bilish jarayonlarining rivojlanishida amaliy faoliyat va ijtimoiy muhitning muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. J. Piaget esa bolaning tafakkuri va idroki faol harakat hamda amaliy tajriba orqali shakllanishini asoslab bergan.

Surdopedagog olimlar R.M. Boskis va S.A. Zikov tadqiqotlarida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida ko'ruv idroki va tasviriy faoliyatning alohida ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. M. Montessori esa qo'l harakatlari va mayda motorikaning rivojlanishi aqliy hamda nutqiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatgan.

Mazkur ilmiy qarashlar tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Kinestetik sezish va barmoqlarning nozik harakati ko'ruv-harakat koordinatsiyasi mexanizmi bilan bog'liq. Tasviriy san'at mashg'uloti bolada chizish, bo'yash, kesilgan qog'oz parchalari, gazlamalardan aplikatsiyalar, tayoqchalar va sim bo'laklari hamda boshqa materiallar yordamida keng va turli obrazlarni amalga oshirishga imkon yaratadi. Bunda qo'lning mayda muskullarining aniq harakati muntazam mashq asosida rivojlanib boradi.

Bir vaqtning o'zida tasviriy faoliyat mashg'uloti o'quvchilardan intizom va tashkilotchilikni, shu bilan birga jarayon rejasini mahorat bilan muntazam bajarishni talab qiladi.

Murakkab badiiy topshiriq oldindan rejalashtiriladi, chunki qilingan bitta noto'g'ri harakat bajariladigan vazifani buzib qo'ymasligi kerak. Asbob va materiallardan to'g'ri foydalanish kerak. Bundan tashqari, tasviriy faoliyat davomida bajariladigan ishlarning natijasi vaqt bilan chegaralanmagan. Tayyorlov davridagi dastlabki harakatlar bolalardan sabr-toqat, saranjomlik, rasmni yoki mahsulotni oxirigacha yetkazish xususiyatlariga moslashishni talab qiladi. Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarda kuzatish ko'nikmasi shakllanadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktab yoshidagi o'quvchilarda predmetni yaxlit ko'ra olish, predmetning umumiy shakli, proporsiyalari, qismlarini taqqoslay olish, fazodagi joylashuvini aniqlash, yorug'lik munosabatlarini topish va boshqa malakalarga egaligini aniqlash mumkin.

Tasviriy faoliyat darslari bolalarda yaxlit va aniq predmet haqidagi tasavvurni shakllantirishga yordam beradi hamda atrof-olamdagi hodisalarni, predmetlarni tasvirlashga, tafakkurdagi mavjud belgi, shakl, konstruktsiya, miqdor, fazodagi holatiga bog'liq belgilarni ajratishga o'rgatadi. O'quvchilar faqat ko'rganlarini qabul qilmasdan, balki predmetlar to'g'risida olgan taassurotlariga asosan haqiqiy (real) dunyo hodisalarini rasmlarda, yasash kompozitsiyalarida, yangi asarlar aplikatsiyalarida aks ettiradilar. Bular tasavvur faoliyati yordamida amalga oshadi, uning asosini esa idrok qilingan tasavvurni qayta o'zgartirish malakasi tashkil qiladi. Tasviriy faoliyat badiiy mashg'ulotning bir turi bo'lib, bu yerda bola reproduktiv faoliyat bilan shug'ullanmasdan, balki o'zi ijod qiladi.

Rasm chizish – bu ijodiy mehnat bo'lib, bolani fikrlash va tahlil qilishga, o'lchab ko'rish va solishtirishga, yaratish va tasavvur qilishga o'rgatadi. Tasviriy faoliyat kichik sinfdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sensor rivojlanish – bu aqliy faoliyatning poydevori bo'lib, butun maktab yillari davomida ta'sir etish orqali ko'rgazmali-obrazli va ko'rgazmali-harakatli tafakkurni shakllantirishdir. Ma'lumki, buyuk olimlarning ijodida texnika va ishlab chiqarish arboblarning ongidagi aqliy va badiiy shakllar muvaffaqiyatli mos kelgan.

Bolalarda tasviriy san'at darsidagi ko'rgazmali-amaliy faoliyatda hamma fikrlash operatsiyalari shakllanadi. Tasvirlangan ob'ektni tekshirib, sinchiklab chiqishda ularning detallarini ajratib, chizayotgan rasmlarini tahlil qiladi, tasviriy tekislikda ushbu detallarni qabul qilib, ma'lum fazoviy qismlarning yaxlit bo'lgan munosabatlariga qarab bir butunlikda birlashtiradi, sintez qiladi, ob'ektning alohida detallarini o'zaro ko'rib chiqish va butunli-

giga nisbatan solishtirishning fikrlash operatsiyasini bajaradi; predmetning umumiy shaklini ajratib, o'z e'tiborini faqat shu ko'rilayotgan ob'ektga qaratadi; predmetlarning o'xshash xossalarini va turli belgilarini birlashtirib, bola ularni tasvirlashning umumlashgan usullarini ishlab chiqadi.

Ranglarni moslashtirish, umumiy bo'yoq rangini topish – bularning hammasi umumlashtirish bilan bog'liq. Predmetning ko'pgina o'xshash qismlarini ajratishda, rasm chizayotganda konkret hodisalarni fikrlash operatsiyasiga asosan bajariladi. Tasviriy faoliyatda ko'rish va harakat xotirasi ham yaxshi rivojlanadi, ularning o'zaro ta'siri shakllanadi. Chunki tasvirlash jarayonida nafaqat qabul qilishni, balki turli chiziqchalar va har xil yo'nalishdagi chiziqlarni o'tkazishni bilish, cho'tka va boshqa usullar bilan ko'rgazmalarni qo'lda kelishilgan holda ishlash o'rgatiladi. Eng muhimi, avval ko'rgan predmet haqidagi tasavvuri hamda uni qanday tasvirlaganini va tasvirlash usullarini eslab qolishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda tasviriy san'at darslari og'zaki nutqni, eshitish va ko'rish idrokini hamda kognitiv jarayonlarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Rasm chizish jarayonida bo'yoqlar bilan ishlash, applikatsiyalar yasashda bolalar badiiy materiallar va jihozlarning nomlari bilan tanishadilar (masalan: qalam, bo'yoqlar, cho'tka, qog'oz, loy va rassomlarning bo'yoq taxtachasi – palitra).

Tasvirlangan predmetlarning nomlarini hamda bu predmetlarning ba'zi qismlarini eslab qoladilar (masalan: hayvonlarning boshi, tanasi, dumi, tishlari, qaddi-qomati, tomirlari va boshqalar).

Tasviriy faoliyatga bog'liq amaliy harakatlarning nomlarini o'zlashtirib oladilar (masalan, rasm chizmoq, tasvirlamoq va boshqalar) hamda fikrlash operatsiyalarini ifodalovchi so'zlar, predmet belgilari, ularga taalluqli ranglar, fakturalar, materiallar, holatlarni o'rganadilar. Masalan, ko'rish, kuzatish, solishtirish, umumlashtirish, ajratish orqali predmetlarning xususiyatlari bilan tanishadilar (to'q sariq, och ko'k rang, to'q yaltiroq, g'adir-budir, yog'ochli, quruq, xo'l va boshqalar).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tasviriy faoliyat eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Tasviriy san'at mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilar predmetlarning shakli, hajmi, rangi va fazodagi joylashuvini kuzatish, tahlil qilish hamda tasvirlash orqali bilish faoliyatini faollashtiradilar. Bu esa ularda idrok, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkur kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning predmetlarni kuzatish, qismlarini ajratish va ularni bir butun holda tasavvur qilish ko'nikmalari shakllanadi. Rasm chizish, bo'yash, applikatsiya va loy bilan ishlash jarayonida mayda motorika faol rivojlanib, bu holat nutq va tafakkur rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, predmetlarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, ranglarni tanlash va moslashtirish jarayonlari o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi fikrlash operatsiyalarini rivojlantiradi.

Kuzatishlar natijasida tasviriy san'at darslarida muntazam ishtirok etgan o'quvchilarda o'quv topshiriqlarini bajarishdagi mustaqillik, ijodiy faollik va qiziqish darajasi ortgani aniqlandi. Shuningdek, o'quvchilarning estetik didi shakllanib, san'at asarlarini idrok etish, ularga baho berish hamda o'z fikrini ifodalash qobiliyati rivojlandi. Tasviriy faoliyat orqali ular atrof-muhitdagi predmet va hodisalarga nisbatan kuzatuvchanlikni namoyon etib, o'z tasavvurlarini mustaqil ravishda ijodiy ishlarda aks ettira oldilar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning nafaqat badiiy qobiliyatlarini, balki kognitiv jarayonlarini ham samarali rivojlantiradi. Mazkur faoliyat o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati va ijodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasviriy faoliyat darslarida u yoki bu so'zlar yoki tushunchalar ustida ishlash bilan birga o'quvchilarda nutqiy talaffuzni o'zlashtirishga ahamiyat beriladi. Suhbat davomida, badiiy asarlarni va maishiy predmetlarni kichik sinfdagi eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar ko'rkamlikni tushunishga, u haqida gapirib berishga, san'atning odamlar uchun xizmat qilishini, dunyoni o'zgartirib yuborishini bilib oladilar. Bularning hammasi o'quvchilarning ma'naviy tasavvurini shakllantirishda, tarixiy faktlar va obrazlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at darslari eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda go'zallikni ko'rish va his qilishni, ajoyib va g'aroyib narsalarni saqlash va ko'paytirishni xohlash tuyg'usini shakllantiradi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotida o'quvchilarning shaxsiy sifatlaridan ziyraklik, tirishqoqlik, matonatlilik, tengdoshlari bilan do'stona o'zaro munosabatda bo'lish, o'zgalar tomonidan bajarilgan ishlarga hurmat bilan qarash tarbiyalanadi, tabiatga, san'at asarlariga, tarix va madaniyat joylarini asrashga g'amxo'r munosabatda bo'lish ko'nikmalari rivojlantiriladi; bolalarda estetik tuyg'u va estetik tarbiya rivojlanadi, estetik ong shakllantiriladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maxsus maktab-internatlarda tasviriy faoliyat mashg'uloti asosiy o'quv fanidan tashqari badiiy bilimlarni va eshitishda nuqsoni bo'lgan kichik sinf o'quvchilarida san'atshunoslik asoslari bilan tanishtirish–tarbiya va rivojlantiruvchi usullaridan biri bo'lib, kognitiv jarayonlarni rivojlantirishda, emotsional va bilish doirasini, og'zaki nutqini rivojlanishtirishda samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Giyozovna S. K. Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi bolalar psixik rivojlanishining xususiyatlari // Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari. – 2026. – T. 54. – №. 2. – C. 86-89.
2. Giyozovna, Sadirova Kamola. “Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi bolalar psixik rivojlanishining xususiyatlari.”// Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 54.2 (2026): 86-89.
3. Giyozovna, S. K. (2026). Eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi bolalar psixik rivojlanishining xususiyatlari. //Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, 54(2), 86-89.
4. Isoqjonova, D. M. “Maxsus ta'lim jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda talaffuz malakalarini shakllantirish.” //Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari 54.2 (2026): 93-94.
5. Fazliddinova T. O. A modern approach to future surdopedagogs in the process of independent education //International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. – 2025. – C. 121-128.
6. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 9. – C. 26-28.
7. Sadirova, Kamola. “Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach.” ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12.9 (2022): 26-28.
8. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(9), 26-28.
9. Yakubjanova, Dilobar B. “Specialized Educational Institutions Correction In Primary Classes Developing Educational Technologies Improvement.”// Journal of Pharmaceutical Negative Results 13 (2022).
10. Yakubjanova DB. Specialized Educational Institutions Correction In Primary Classes Developing Educational Technologies Improvement.// Journal of Pharmaceutical Negative Results. 2022 Oct 8;13.
11. Якубжанова, Д. Б. “Бўлажак дефектологларда касбий ижодкорликни ривожлантириш технологияси.” Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати 54 (2017).
12. Yakubjanova, D.B., 2022. Specialized Educational Institutions Correction In Primary Classes Developing Educational Technologies Improvement.// Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.